“O‘zkimyosanoat” AJning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari haqidagi 2023-yil hisoboti

https://uzkimyosanoat.uz/oz/anticorruption/report/report-2023

2023-yil davomida “O‘zkimyosanoat” AJga jami 510 ta (2022-yilda 528 ta) ariza va shikoyatlar kelib tushgan. Viloyatlar kesimida tahlil qilinganida, Qoraqalpog‘iston Respublikasidan 34 ta, Buxoro viloyatidan 3 ta, Jizzax viloyatidan 16 ta, Qashqadaryo viloyatidan 149 ta, Navoiy viloyatidan 142, Namangan viloyatidan 3 ta, Samarqand viloyatidan 5 ta, Sirdaryo viloyatidan 2 ta, Surxandaryo viloyatidan 2 ta, Toshkent viloyatidan 71 ta, Farg‘ona viloyatidan 326 ta, Xorazm viloyatidan 2 ta, Toshkent shahridan 43 ta, boshqa hududlardan 6 ta ariza va shikoyatlar kelib tushgan bo‘lib, ulardan 30 tasi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqidagi murojaatlardir.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqidagi arizalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, ularning 4 tasi ishonch telefoni, 10 tasi Prezident virtual qabulxonasi, 2 tasi Xalq qabulxonasi va 9 tasi jamiyatning pochta manzili, 2 tasi Jamiyatning elektron pochta manzili, 1 ta yozma shaklda, 1 tasi Jamiyatning elektron bot manziliga orqali kelib tushgan bo‘lsa, 1 tasi ariza bevosita fuqaroni shaxsiy qabulidan olingan arizalarni tashkil etadi.

Murojaatlarning hududlar kesimidagi tahlilida 14 tasi Qashqadaryo viloyati, 6 tasi Navoiy viloyati, 2 tasi Farg‘ona viloyati, 7 tasi Toshkent viloyati, va 1 tasi Qoraqalpog‘iston Respublikasida yashaydigan fuqarolardan yuborilganligi ma’lum bo‘lgan.

Barcha murojaatlar tegishliligi bo‘yicha “O‘zkimyosanoat” AJ Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens boshqarmasi hamda tizim korxonalari Komplayens xizmati xodimlari bilan hamkorlikda o‘rganib chiqilgan.

Aloqa kanallari orqali kelib tushgan murojaatlarni o‘rganishlar natijasida 10 ta holatda to‘plangan hujjatlar holatlarga huquqiy baho berish uchun huquqni muhofaza qiluvchi idoralariga, 1 ta murojaatda manfaatlar to‘qnashuvi holatlari mavjudligi o‘z tasdig‘ini topganligi munosabati bilan faoliyat yurtayotgan xodimlar bilan mehnat shartnomalarini bekor qilish choralari ko‘rilgan va 4 ta holatda mansabdor shaxslarga nisbatan intizomiy jazo choralari qo‘llanilgan.

Misol uchun, F.M. arizasi asosida “Navoiyzot” AJ Malakalarni baholash markazi direktori M.R. va markaz mutaxassisi Sh.K.lar “Navoiyzot” AJda ishchi bo‘lib ishlovchi D.Ani yuqori maoshlik lavozimga o‘tkazish uchun 700 AQSH dollarini olganligi holati yuzasidan xizmat tekshiruvi o‘tkazilib, to‘plangan hujjatlar huquqni muhofaza etuvchi idoraga yuborilgan.

2023-yilda “Navoiyzot” AJda ayrim mansabdor shaxslarning ish faoliyatida uchrayotgan kamchiliklarni aniqlash va kelgusida bunday holatlarning sodir etilishini oldini olish uchun “O‘zkimyosanoat” AJ tomonidan tekshiruvlar uyushtirilgan. O‘tkazilgan tekshiruvlar natijasi yuzasidan to‘plangan hujjatlar huquqiy baho berish uchun huquqni muhofaza etuvchi idoraga yuborilgan. Natijada Navoiy viloyat prokuraturasi tomonidan JKning 167-moddasi bilan jinoyat ishi qo‘zg‘atilib, tergov harakatlari o‘tkazilgan.

Tergov yakuni bo‘yicha 2023-yilning 15-noyabr kuni tegishli sudlov hukmi chiqib, unga ko‘ra “Navoiyzot” AJda mansabdor lavozimlarda ishlagan J.Z., M.O., E.A., S.S. va F.N.lar O‘zbekiston Respublikasi JKning 167-moddasi 3-qismi “a” bandi va boshqa moddalar bilan aybli deb topilgan. Mazkur jinoyat ishini tergov qilish jarayonida yetkazilgan moddiy zararlardan 2.700.000.000 dan ortiq moddiy zararlar qoplanishiga erishilgan.

Bundan tashqari, aloqa kanallari orqali kelib tushgan ma’lumotlar asosida joriy yilning mart oyida “O‘zkimyosanoat” AJ va “Navoiyazot” AJ Komplayens boshqarmalari tomonidan Xorazm viloyati Urganch shahridagi “Hasan-ata” MChJga qarashli 5-sonli vakolatli omborda o‘tkazilgan xatlov jarayonida ombor mudiri O‘.D. tomonidan 1-mart holatiga 1224,273 tonna – birja bahosi 3 695 685 971 so‘mlik mineral o‘g‘itlar kamomadi aniqlandi. Aybdorlarga nisbatan qonuniy chora ko‘rish maqsadida to‘plangan materiallar Navoiy viloyat prokuraturasiga jo‘natildi. Natijada O‘zbekiston Respublikasi JKning 167-moddasi 3-qismi, 228-modda 1-qismi bilan jinoyat ishi qo‘zg‘atilib, yetkazilgan zararning 3,1 mlrd. so‘mi undirilishiga erishildi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan korrupsion va boshqa qonunbuzilish holatlarining kelib chiqish sabab va omillari tahlil qilinib, mavjud korrupsion xavf-xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarning 2024-yil uchun mo‘ljallangan rejasi tasdiqlandi. Shuningdek, kelib tushgan murojaatlarni o‘rganish natijasida aniqlangan holatlarning salbiy oqibatlari, korxona va tashkilotlardagi mansabdor shaxslarning javobgarligi masalasini kuchaytirish mavzularida “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisi rahbarligida jamiyat shaxsiy tarkibi va tarmoq korxonalari rahbarlari ishtirokida bir necha marotaba profilaktik suhbat va seminar tadbirlari o‘tkazilgan.